

SHUKUR XOLMIRZAYEVNING “QADIMDA BO‘LGAN EKAN” HIKOYASIDA ARXETIPIK MOTIV VA OBRAZLAR TALQINI

Tangirov Ro‘ziboy

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti mustaqil tadqiqotchisi

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ АРХЕТИПИЧЕСКИХ МОТИВОВ И ОБРАЗОВ В РАССКАЗЕ ШУКУРА ХОЛМИРЗАЕВА «ЭТО БЫЛО ДАВНО»

Тангиров Рузбой

*Независимый исследователь в Термезском университете
экономики и сервиса*

INTERPRETATION OF ARCHETYPAL MOTIVES AND IMAGES IN SHUKUR KHOLMIRZAYEV'S STORY “IT WAS A LONG TIME AGO”

Tangirov Ruziboy

*Independent researcher at Termez University of Economics and
Service*



Tel+998976049100
Orcid: 0009-0000-3371-
8009

Annotatsiya: Maqola Shukur Xolmirzayevning “Qadimda bo‘lgan ekan” hikoyasidagi arxetipik elementlarni tahlil qilishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda avlodlararo munosabatlar va inson hayotining qadri kabi abadiy mavzular ochib berilgan. Muallif syujet va personajlarning umuminsoniy mifologik motivlar (belarus, latish afsonalaridagi keksalarni tashlab ketish odati) hamda K.G. Yungning arxetiplar nazariyasi bilan bog‘liqligini tadqiq qiladi.

Kalit so‘zlar: arxetip, motiv, “donishmand kampir” arxetipi, mifologik sujet, folklorizm.

Аннотация: Статья посвящена анализу архетипических элементов в повести Шукура Холмирзаева «Это было давно», в которой раскрываются такие вечные темы, как взаимоотношения поколений и ценность человеческой жизни. Автор исследует связь сюжета и персонажей с универсальными мифологическими мотивами (обычай оставлять стариков в белорусских и латышских легендах) и теорией архетипов К. Юнга.

Ключевые слова: архетип, мотив, архетип «мудрой старухи», мифологический сюжет, фольклоризм.

Abstract: The article is devoted to the analysis of archetypal elements in Shukur Kholmiraev's story “It Was a Long Time Ago”, which reveals such eternal themes as the relationship between generations and the value of human life. The author explores the connection of the plot and characters with universal mythological motifs (the custom of leaving old people in Belarusian and Latvian legends) and the theory of archetypes by C. Jung.

Key words: archetype, motif, “wise old woman” archetype, mythological plot, folklore.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Arxetipik tasavvurlar va sujetlar dunyo xalqlarining og‘zaki ijodi uchun asosiy manba hisoblanadi. Madaniyat, adabiyot va san‘at tarixining butun yo‘li davomida arxetipik motivlar tasviriy san‘at, adabiyot va musiqa yo‘nalishida yaratilajak asarlarning

sujetlarini shakllantirishda muhim ro‘l o‘ynamoqda. Tarixiy hikoyalar vaqt o‘tishi bilan miflarini siqib chiqargan bo‘lsa-da, uning hilma-hil elementlari og‘zaki ijodning, adabiyotning eng mukammal janrlarida ham saqlanib qolganini ko‘rishimiz mumkin. Arxetiplar, sujet va fabula elementlari

davrdan davrga o'tib, qayta anglashilmoqda, har turli evrilmoqda. Badiiy adabiyotning deyarli har bir namunasida mifologik mavzular va motivlar, arxetipik obraz va personajlar, qahramonlar ishtirok etadi desak mubolag'a bo'lmaydi. L.Levy-Bryulning ommaviy tasavvurlar g'oyasini va Z.Freydning ongsizlik haqidagi nazariyasini birlashtirgan K.G.Yung arxetipda o'zining obrazli ifodasini topadigan jamoaviy ongsizlik konsepsiyasini yaratadi. Bosh arxetiplar sifatida olim "sharpa", "bola", "ona", "erkak/ayol", "o'zlik", "donishmand chol/kampir" arxetiplarini alohida ajratadi va ularning badiiy ijoddagi muhim rolini ta'kidlab o'tadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Milliy nasrimizning A.Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, A.Qahhor, Shuhrat, Oybek, G'.G'ulom kabi zabardast adiblarining vorisi bo'lgan O.Yoqubov, P.Qodirov, A.Muxtor, Ya.Ilyosov, Sh.Xolmirzayev, M.Ali, N.Aminov, U.Nazarov, O'.Umarbekov, O.Muxtor, E.Samandar, H.Shayxov, A.Dilmurod kabi ijodkorlar asarlarida umuminsoniy mavzu va muammolar turli majoziy obrazlarda tasvirlangan bo'lsa, istiqloq davrida M.M.Do'st, N.Qobul, E.A'zam, N.Normatov, X.Do'stmuhammad, A.A'zam, N.Eshonqul, A.Ibodinov, U.Hamdani, Q.Norqobil, Sh.Bo'taev, T.Rustam, A.Mirzo, Zulfiya Qurolboy qizi kabilar ijodida insoniy munosabatlar muqaddasligi yuqoq poshosda kuylana boshladi. Bu jarayon eng avvalo, kichik nasriy janr bo'lgan hikoyachiligimizda yaqqol ko'zga tashlanadi. Ta'kidlash joizki, mustaqillik davri o'zbek hikoyachiligi jahon adabiyoti va folklori durdonalarining badiiy sintezi sifatida namoyon bo'la boshladi [1].

O'zbek realistik hikoyachiligi o'zining ibtidosidan tortib hozirga qadar folklor materialidan muayyan darajada oziqlanib kelmoqda.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Adabiy arxetipik obraz insonga xos ongli va ongsiz tabiatning o'ziga xosligi tufayli emotsional va mazmuniy ko'p qirraligi bilan farqlanadi. Uning mazmuni adabiy asarda barqaror sujet elementlari, kompozitsion priyomlar va motivlarda mujassamlanadi. Adabiy arxetipik obrazning emotsional hamda mazmuniy to'yinganligi uni asarning estetik markazlaridan biri hisoblash imkonini beradi. Ushbu obraz ortida turgan barqaror va ko'p qirrali mazmun, turli kontekstlarda "tanilishi" hamda o'quvchiga ta'sir

kuchi badiiy asar strukturasi uning alohida o'rnini belgilab beradi. U badiiy matnning yaqqol ko'zga tashlanuvchi estetik markazi bo'lishi bilan birga, mohiyat maqomi muallifning ijodiy salohiyati hamda o'quvchining ushbu obrazda tajassumlangan ma'lum umuminsoniy tasavvurlar va hislarni idrok etishiga bog'liq holda voqelanadi [2].

Shukur Xolmirzayevning "Qadimda bo'lgan ekan" hikoyasi abadiy mavzu – avlodlar munosabati va umuminsoniy dard – inson qadriga bag'ishlangan. Hikoya qahramonlari ham arxetipik: erkak – nashavan va mushtumzo'r O'sar, ayol – uning kaltaklardan kasalmand xotini Xojar hamda "donishmand kampir" arxetipi – O'sarning keksayib, hayot yo'li tugab borayotgan momosi Maqsad kampir [3].

Dunyo xalqlari folklorida keksalarni biror saxroga, dashtu dalalarga, o'rmonga tashlab kelish bilan bog'liq motivlar keng tarqalgan. Bu bir tomondan fasllar almashuvi, "tabiatning o'lib – qayta tirilishi" kabi eng qadimgi mifologik qarashlar bilan bog'liq motivlar, boshqa tomondan turmush qiyinchiliklaridan kelib chiqqan urf-odatlar asos bo'lgan motivlardir. Kexsa otani yoki munkillab, ortiqcha og'iz bo'lib qolgan onani ovloq yerlarga tashlab kelish to'g'risida so'z yuritilgan ko'plab afsona, rivoyat va ertaklarni bunga misol keltirishimiz mumkin [4].

Kampir – bemahsul, hech narsa yaratmaydigan, ammo tajriba va an'analarni saqlovchi, keyingi avlodlarga uzatuvchi arxetip. U ko'p yashagan va ko'pni ko'rgan, ko'p narsalarni biladi va uning ayrim bilim-ko'nikmalari yangi avlodning tushunishi chegaralariga sig'maydi. O'limi yaqin qolgan, bir oyog'i go'rda – narigi dunyo bilan suhbatlashadi. Kampir obrazi har qanday holatda donishmandona ish tutadi, hatto salbiy munosabat vaziyatida ham. Shukur Xolmirzayev hikoyasining personaji Maqsad momo xuddi shunday arxetipik obrazdir. Momoning o'z nevaralariga ortiqcha og'iz, keliniga ortiqcha tashvish bo'lib qolganini muallif kampirning portreti va nutqi orqali o'quvchiga yetkazib bera olgan: "Momosi Maqsad beva deraza tagida, shishib ketgan o'ng oyog'ini uqalab o'tirar, oppoq sochlari qo'qib ketgan — ajinadan farqi yo'q edi". "Kampir gap ma'nosini yaxshi uqmagan bo'lsa-da, bosh iring'adi. — Omon bo'lsin, qaerda bo'lsayam... Meniki emas, davlattiki. Ha, o'zginang yaxshi juribsammi? Bolalaring... — Kampir yana o'ylanib

qoldi. — Bolam, men xayolati bo'p qoldim... Kelinimgayam ko'p azob beraman. Kecha kechasi darvozadan chiqib ketippan. Bechora ko'tarib olib keldi. «Uyga qama meni! Men o'lay!» dedim. Keyin u yig'ladi, men yig'ladim. Qarilik shu ekan... — Shunda birdan iliqqina jilmayib, nevarasiga boqdi.— Biron-biron joyga oborib adashtirib kelmaysanmi?

— Nima-a? — dedi O'sar va nosini yo'lkaga tuflab tashladi. — Esingiz joyidami?

— Endi, — kampir iljaygancha davom etdi: — bo'lgan ekan-da qadimda...» [5]

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ/RESULTS). Xalq og'zaki ijodining ushbu motiv asosida yaratilgan barcha namunalarida o'g'il o'zini dunyoga keltirgan otasi yo onasi va yosh oilasi o'rtasida tanlash zaruratidan ruhiy iztirobga tushadi. Shukur Xolmirzayevning qahramoni O'sar ham bag'ritosh, qattol kishi emas, u shunday niqob ostida o'z asl tiynatini yashirib yashaydi. Turmushda qo'li kaltaligidan ruhan ezilgan o'z zamonining “kichkina odami” giyohvandlikka berilgan, lekin momosi oldidagi nevaralik mas'uliyatini ich-ichidan his etib turadi, xotinini yaxshi ko'radi: “Shoshma, biron haptaga oborib qo'ysam-chi, o'sha yetimxonaga?» — degan o'y keldi xayoliga. Va bu «reja» unga shunchalik ma'qul tushib ketdiki, bu o'yning ilgariroq kelmaganidan hatto hayron qoldi: axir, bir haftada kampirning qadri o'tadi, pushaymon yeydi bu... Buning ustiga, qo'ni-qo'shnilarining ta'nasiga chidolmaydi... Yoki, ularga bildirmaydimi? «Ukalari Kenjanikiga oborib qo'yдилar. Sog'ingan ekanlar», deydi. Lekin Kenja bu «ish»ni bilsa, rosa yig'laydi... Balki kampirni o'z uyiga olib ketadi...» Bu orada xotini Hojarning g'oyat iztirobga tushishi — o'zini ming bor la'natlashi va, demak, O'sar «tantana» qilishi — xotini ustidan mardona kulishini o'ylab: — Bo'ldi! — dedi. — Momomning uyiga kir. Ul-bulini yig'ishtir... — Xotini unga baqrayib qoldi. — Senga aytyapman, ko'zing o'yilgir! — o'dag'ayladi O'sar. — Bo'ldi, muddaongga yetding... Ennasini... bu dunyoni!» [6]

Hikoya muallifining o'zbek va jahon xalqlari folkloridan yaxshi xabardorligi yo'l motividan foydalanishida ham ko'zga tashlanadi. Tahlil qilayotgan motivda yaratilgan afsona va rivoyatlarda kekcha otasi yo onasini yelkasiga ko'targan yoxud savatmi, aravaga, chanaga ortgan o'g'ilning oloq joy izlab yo'l bosishi, yo'l yurish asnosida qilayotgan ishidan qattiq iztirobi manzarasi kuzatiladi.

Muallif abadiy mavzularga bag'ishlangan hikoyasini shunday tugatishida ham chuqur ma'no bor bo'lib, u xulosani o'quvchining o'ziga qo'yib beradi. Arxetipik motiv va obrazlar — folklorda ham, badiiy adabiyotda ham “abadiy motiv va obrazlar” hisoblanadi. Avlodlar o'rtasidagi munosabatlar muammosi, inson qadri, mehr-oqibat masalalari ham boqiy mavzulardir [7].

“Chol va kampir” adabiy obrazi arxetipik tabiatga egadir. Ushbu obrazning mifologiyada, xalq og'zaki ijodi va marosimiy madaniyatda hamda turli xalqlar badiiy adabiyotida keng tarqalganligi uni abadiy obrazlar, ya'ni arxetiplar qatoriga qo'shadi. Shu bilan birga bu obrazning mifologikdan postmifologik davrlarga o'tishda ma'no evrilishlariga uchraganiga e'tibor qaratish muhim.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa o'rnida shuni aytilish mumkinki, Shukur Xolmirzayev o'z ijodida mifologik motivlarga, arxetipik obrazlarga, folklorizmlarga murojaat qilib, o'zbek va jahon xalqlari orasida keng tarqalgan afsona va rivoyatlardan unumli foydalangan holda shaxsiy kechinmalar, iztirob va muammolarni umuminsoniy dard darajasiga ko'tara olgan. Yozuvchining qahramonlari arxetipik universal obrazlar bo'lib, ma'lum zamon va makon chegaralarida qolmaydigan boqiy timsollarga aylantirilgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. — T.: O'zbekiston, 2001. — 560 b.
2. Hamidova M. Hozirgi o'zbek adabiyotida milliy qahramon muammosi (Shukur Xolmirzayev ijodi misolida). Filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi. — Toshkent: 2001.
3. Imomkarimova M. O'tkir Hoshimov asarlarida milliy qadriyatlar talqini. Filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi. — Toshkent: 2004.
4. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. — T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr., 2004. — 224 b.
5. Umurov H. Badiiy psixologizm va hozirgi o'zbek romanchiligi. — Toshkent: 1983.
6. Xolmirzayev Sh. Saylanma II. Hikoyalar. — Toshkent: Sharq, 2009. <http://www.ziyouz.com> kutubxonasi.
7. Yo'ldoshev Q. Erkin so'z: Sh. Xolmirzayev zamondoshlari xotirasida. — Toshkent: G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010.